

## **“Asaka” bank (OAJ) Boshqaruvining 2013 yil birinchi yarmida bank faoliyati yakunlariga bag’ishlangan kengaytirilgan majlisi bo’lib o’tdi**

2013 yil 27 iyulda «Asaka» bank (OAJ) Boshqaruvining kengaytirilgan majlisi bo’lib o’tdi.

Majlisda “Asaka” bank (OAJ)ning 2013 yil birinchi yarim yilligidagi faoliyati yakunlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari”ga bag’ishlab, joriy yilning 18 yanvarida Vazirlar Mahkamasida o’tkazilgan yig’ilishdagi ma’ruzasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosi muhokama qilindi.

“Asaka” bank Boshqaruvi qayd etadiki, bankning 2013 yil birinchi yarim yilligidagi faoliyati Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 18 yanvardagi majlisida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan belgilab berilgan 2013 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor vazifalarini izchil amalga oshirish, bankning barqarorligini mustahkamlash, kapitallashuv darajasini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko’rsatkichlariga erishish, aholi va xo’jalik yurituvchi subyektlarning bo’sh pul mablag’larini bank depozitlariga jalb qilishni ko’paytirish, bank aktivlari va kredit portfeli sifatini yaxshilash, “Obod turmush yili” Davlat dasturi ijrosini ta’minlash hamda bankning investitsiya jarayonlaridagi ishtirokini yanada faollashtirish, iqtisodiy nochor va bankrot korxonalarini ishlab chiqarishini yo’lga qo’yib, ularni yangi investorlarga sotilishini ta’minlashga qaratildi.

2013 yil 1 iyul holatiga bankning jami aktivlari 4,2 trln.so’mni tashkil qilib, o’tgan yilning shu davriga nisbatan 111,1% ga o’sdi. Daromad keltiruvchi aktivlar 2,77 trln. so’mni tashkil qilib, umumiy aktivlarni 66,6% tashkil qildi.

Bank kapitali hajmi 635,5 mlrd. so’mga yetkazilib, 121,3% ga o’sishi ta’minlandi. Bankning jami kredit qo’yilmalari va unga tenglashtirilgan moliyaviy xizmatlari hajmi 2,6 trln.so’mni tashkil qilib, 111 foizga yoki 266 mln.so’mga o’sdi. Kredit qo’yilmalarining 1,67 trln. so’mi (kredit portfelini 83,4%) uzoq muddatli kreditlarni tashkil etdi. Joriy yilning birinchi yarim yilligi davomida bank tomonidan jami 275,1 mlrd. so’m miqdorida investitsiya kreditlari ajratilib, investitsion kreditlar bo’yicha qoldiq 1,4 trln. so’mni tashkil qildi. Bankning lizing amaliyotlari hajmi 19,5 mlrd so’mni tashkil qilib, 21 ta xo’jalik subyektiga ko’rsatilgan lizing xizmatlari natijasida 119 tadan ortiq yangi ish o’rinlari yaratildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash uchun 394,1 mlrd. so’mdan ortiq miqdorda kredit mablag’lari ajratildi, ajratilgan mikrokreditlar hajmi 23,9 mlrd. so’mni va ayollar tadbirkorligini qo’llab-quvvatlashga 30,6 mlrd.so’m miqdorda kredit mablag’lari ajratildi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-308-sonli va PQ-842-sonli qarorlarga asosan qoramol sotib olishga ajratilgan mikrokreditlar xajmi 3,4 mlrd. so’mni, PQ-1047-sonli qaroriga asosan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga

88,2 mlrd. so'm, PQ-1050-sonli qaroriga asosan nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga 94,1 mlrd.so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 3,2 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2013 yilning birinchi yarim yilligida "Asaka" bank tomonidan jami ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar evaziga 13 734 tadan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Bankning jami depozitlari miqdori 2,64 trln. so'mni tashkil qilib, shundan 382 mlrd.so'mi aholi omonatlari qoldiqlarini tashkil etdi.

Bank tomonidan 1200 ming dona plastik kartochkalari muomalaga chiqarilib, 258 ming donaga ko'paydi. 2013 yil 1 iyul holatiga 8874 ta terminal o'rnatildi. Plastik kartalar orqali amalga oshirilgan savdo aylanmalar hajmi 611,46 mlrd.so'mni tashkil qildi. Savdo aylanmalar hajmi 38,3%ga yoki 169,4 mlrd. so'mga o'sdi. Bank tizimida 27 ta bankomat va 46 ta infokiosk aholiga va bank mijozlariga xizmat ko'rsatib turibdi.

Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarining mulkiy majmualari umumiy soni 46 tani tashkil etib, shundan 15 ta bankrot korxonalar negizida bankning 13 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan Bank korxonalariga jami 92,1 mlrd. so'm miqdorida investitsiya kiritildi. 2013 yilning 1 iyul holatiga 39 ta bankrot korxonalar yangi sarmoyadorlarga sotilishi ta'minlandi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda 2013 yilning yanvar-iyun oylarida 45 mlrd. so'm miqdorida mahsulot ishlab chiqarilib, eksport hajmi 3,4 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Bank korxonalarini va yangi investorga sotilgan 46 ta mulkiy majmualar negizida 4156 dan ziyod xodim ish bilan ta'minlandi. Bankning 16ta sho'ba korxonalarida esa 2527 nafar xodim ish bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga, majlisda bankning ayrim filiallari tomonidan kreditlash, buxgalteriya hisobi, pul muomalasi, valuta amaliyotlari, plastik kartochka va boshqa amaliyotlarni bajarishda Markaziy bank hamda Bosh ofis tomonidan yaratilgan imkoniyatlardan talab darajasida foydalanilmayotganligi sababli xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi tanqid ostiga olindi.

Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqib, hamda 2013 yil birinchi yarim yilligida bank filiallari faoliyatida yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni va salbiy holatlarni bartaraf etish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "2012 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga" bag'ishlab, 2013 yilning 18 yanvarida Vazirlar Mahkamasida bo'lib o'tgan yig'ilishdagi dasturiy ma'ruzasida hamda Markaziy Bank Boshqaruvining 2013 yil 27 iyulida bo'lib o'tgan majlisida "Asaka" bank oldiga qo'yilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida, Bank Boshqaruvi tegishli qarorlar qabul qildi.